

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘AFFOROV RAHMATJON ABDUQAXXOROVICH**

**CHIZIQ VA SIRTLARNING PSEVDROYEVKLID FAZOLARIDAGI  
ALMASHTIRISHLARGA NISBATAN EKVIVALENTLIGI**

**01.01.01 – Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on physical-mathematical sciences**

**G'afforov Rahmatjon Abduqaxxorovich**

Chiziq va sirtlarning psevdoyevklid fazolaridagi almashtirishlarga nisbatan  
ekvivalentligi ..... 3

**Гаффоров Рахматжон Абдукаххорович**

Эквивалентность кривых и поверхностей относительно движений  
псевдоевклидовых пространств ..... 19

**Gafforov Rahmatjon Abduqaxxorovich**

An equivalency of curves and surfaces with respect to the action of the movements  
for pseudoeuclidean spaces ..... 37

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 41

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘AFFOROV RAHMATJON ABDUQAXXOROVICH**

**CHIZIQ VA SIRTLARNING PSEVDROYEVKLID FAZOLARIDAGI  
ALMASHTIRISHLARGA NISBATAN EKVIVALENTLIGI**

**01.01.01 – Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.2.PhD/FM207 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim tarmog'ida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mo'minov Qobiljon Qodirovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasul Nabiyevich G'anixo'jayev**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Axror Yusupovich Hamrayev**  
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «06» iyul soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13, faks: (+998 75) 221-00-56, e-mail: [qarshidu@mail.uz](mailto:qarshidu@mail.uz)). Qarshi davlat universiteti, Fizika-matematika fakulteti, 102-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (172 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi sh., Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 225-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «24» iyun kuni tarqatildi.  
(2023 yil «24» iyun dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.A.Sholimqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**SH.D.Nodirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d. (PhD)

**A.A.Imomov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.-m.f.d. (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda miqiyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda egri chiziq va sirtlarning ekvivalentligi shartlarini o‘rganish masalalariga keltiriladi. Egri chiziq va sirtlarning ekvivalentligi masalalari tadqiq qilish invariantlar nazariyaning asosini tashkil qiladi. “Invariantlar nazariyasi” zamonaviy matematikada muxim ahamiyatga ega. “Invariantlar nazariyasi” matematika va fizikaning ko‘pgina sohalarda, masalan, proyektiv geometriya, differensial geometriyaning, kvant mexanikasi va boshqa ko‘plab sohalarda markaziy o‘rinni egallaydi. Shu sababli chiziq va sirtlarning ekvivalentligi shartlarini topish zamonaviy matematikada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda hozirgi vaqtda chekli o‘lchamli chizikli fazoda yotgan egri chiziq va sirtlarning ma’lum bir gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalentligi shartlarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, egri chiziqlar va sirtlarning ma’lum bir gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalent bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlari asosiy muammosiga qo‘shimcha ravishda, uni hal qilishning geometrik yondashuvi doirasida egri chiziqlar va sirtlarni egrilik, burilish va boshqa geometrik xususiyatlarni berilganlar bo‘yicha tiklash masalasiga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda keyingi yillarda fundamental tadqiqotlarni ilmiy va amaliy qo‘llanilishini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi va muayyan ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, oxirgi yillarda egri chiziqlar va sirtlarning ekvivalent bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Evklid fazosida berilgan yo‘llar va sirtlarning ma’lum bir gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalent bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlarini topishda salmoqli natijalarga erishildi. 2020 - 2024-yillarda “Funksional analiz, matematik analiz, differensial tenglamalar, matematik fizika, ehtimollar nazariyasi va invariantlar nazariyasi fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy izlanishlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari” etib belgilandi<sup>1</sup>. Ushbu qarorni ijrosini ta’minlash maqsadida invariantlar nazariyasini tadqiq qilish usullarini ishlab chiqish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son «Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-son qarori.

PQ-4708-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Yoʻllar va sirtlarning ekvivalentligi muammosini hal qilishning asosiy vositasi chiziqli gruppalarning invariantlari nazariyasi boʻlib, uning asoslari A.Puankare, G.Weyl, D.Hilbert, J.Dieudonne, J.Kerroll, D.Mumford, X.Kraft va boshqalar ishlarida koʻrilgan. Chekli oʻlchamli fazolar doirasidagi invariantlar nazariyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- I. Maʼlum chiziqli gruppaga taʼsiriga nisbatan ekvivalentligigacha aniqlikda chiziqli fazo elementlarini tasniflash.
- II. Invariantlar algebrasining chekli tashkil etuvchilarini tiklash va ular orasidagi munosabatlarni aniqlash.

II masala Hilbertning 14-masalasi sifatida tanilgan. Yoʻllar va sirtlarning ekvivalentligi muammosi XX asr boshida E. Kartan tomonidan qoʻyilgan va hozirda Kartan muammosi deb nomlanadi. Bu muammoni invariantlar nazariya usullaridan farq qiluvchi reperlar usuli bilan chuqur oʻrganishni E.Kartanning oʻzi olib bordi. Bu masalani yechishning geometrik yondashuvlari J.Pommare, Yu.A.Aminov, V.Blashke, P.A.Shirokovlar ishlarida koʻrib chiqilgan. I.M.Yaglomning simplektik gruppaga taʼsiriga nisbatan bir juft egri chiziqning ekvivalentligi masalasini yechishga bagʻishlangan ishlarini ham qayd etish lozim.

Chekli oʻlchamli fazolardagi egri chiziqlar ekvivalentligi masalasini geometrik usullar bilan yechishda egri chiziqlarning egrilik, buralish va boshqa geometrik xossalarini berilganlar boʻyicha tiklash masalasi A.Ortiqboev, I.M. Yaglom ishlarida koʻrib chiqilgan.

Hilbertning 14-masalasining “differensial” analogi respublikamizda J.Xadjiev, O.Peksen, R.G. Aripov, K.K. Moʻminov, A.M. Suxtaeva, B. Tursunovlarning ishlarida turli klassik gruppalarning taʼsiriga nisbatan koʻrib chiqilgan va Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi J.Xadjiev asarlarida batafsil bayon qilingan. Jumladan pseudoortogonal va simplektik gruppalar taʼsiriga nisbatan yoʻllarning ekvivalentligini K.K. Moʻminov, V.I. Chinning ishlarida koʻrish mumkin, sirtlarning ekvivalentligi masalasini xal qilish masalalarini esa K.Moʻminov, U.Bekboyev va boshqalar ishlarida koʻrilgan. Ushbu dissertatsiyada yuqorida sanab oʻtilgan masalalar maxsus psevdortogonal gruppaning taʼsiriga nisbatan yechilgan. Bundan tashqari ushbu gruppaga taʼsiriga nisbatan koʻp oʻlchovli sirtlarning ekvivalentlik masalasi invariant matritsaviy funksiyalari yordamida xal qilingan. Shuningdek baʼzi Evklid boʻlmagan geometriyalarda yoʻllarning maxsus psevdortogonal gruppaga taʼsiriga nisbatan ekvivalent boʻlishining zaruriy va yetarli shartlari topilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya

tadqiqoti Farg‘ona davlat universitetining 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan ilmiy ishlar, ilmiy-pedagogik kadrlar ilmiy salohiyatni ko‘tarishning ustuvor yo‘nalishlari dasturining, “Funksional analiz va uning tadbiqlari” nomli bandi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan yo‘llar va sirlarning ekvivalentligi muammosini hal qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

psevdoevklid fazosida berilgan yo‘llar va sirlarning maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalent bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlarini aniqlash;

psevdoevklid fazosida berilgan yo‘llar va sirlar sistemalarini maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalentligi shartlarini topishda hosil bo‘lgan differensial tenglamalar sistemasini yechimini aniqlash;

ba’zi Evklid bo‘lmagan geometriyalarda maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan yo‘llarning ekvivalentligi uchun zarur va etarli shartlarni topish;

psevdoevklid fazosida berilgan yo‘llar va sirlarni ularning differensial invariantlari bo‘yicha ekvivalentligiga qadar qayta tiklash teoremlarini isbotlash.

**Tadqiqotning obyekti** maxsus psevdootogonal gruppaning ta'siriga nisbatan yo‘llar va sirlarning ekvivalentligi.

**Tadqiqotning predmeti** invariantlar nazariyasi, gruppalarni tasvirlari nazariyasi, differensial tenglamalar, funksional analiz.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada invariantlar nazariyasi, Li gruppalari nazariyasi va gruppalarni tasvirlari nazariyasi, shuningdek differensial tenglamalar va differensial algebra usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

psevdoevklid fazosida berilgan yo‘llar va sirlarning maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalent bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlari invariant matritsaviy funksiyalar va differensial chiziqli formalar orqali topilgan;

psevdoevklid fazosida berilgan yo‘llar va sirlar sistemalarini maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalentligi shartlarini topishda hosil bo‘lgan oddiy differensial tenglamalar sistemasi yechimining mavjud va yagonaligi ma’lum shartlar va invariant matritsaviy funksiyalar yordamida isbotlangan;

ba’zi Evklid bo‘lmagan geometriyalarda yo‘llarning maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalent bo‘lishining zaruriy va yetarli shartlari invariant matritsaviy funksiyalar va differensial chiziqli formalar orqali topilgan;

psevdoevklid fazosida berilgan yo‘llar va sirlarni ularning differensial invariantlari bo‘yicha maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan ekvivalentligigacha qadar qayta tiklash teoremlari matritsaviy differensial tenglamalar sistemasini yechimining mavjud va yagona bo‘lishini ko‘rsatish orqali isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Differensial geometriyaga oid masalalarni yechishda maxsus psevdootogonal gruppaga ta’siriga nisbatan yo‘llar va sirlar sistemalarining ekvivalent bo‘lishining

zaruriy va yetarli shartlarini topilib va ushbu shartlarni topishda hosil bo'lgan differensial tenglamalar sistemasi yechimining mavjudligi va yagonaligini aniqlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** matematik va funksional analiz, invariantlar nazariyasi, gruppalar tasvirlari nazariysi va differensial tenglamalar usullaridan foydalanilgani hamda olingan natijalar matematik jihatdan qat'iy isbotlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalardan gruppalar tasvirlari nazariyasi, differensial geometriya va invariantlar nazariyasining yanada rivojlanishida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati yo'llar va sirlarning ekvivalent bo'lishining zaruriy va yetarli shartlarini topish orqali differensial geometriyaga oid masalalarni yechishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chiziq va sirlarning psevdoyevklid fazolaridagi almashtirishlarga nisbatan ekvivalentligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

maxsus psevdoortogonal gruppaning ta'siriga nisbatan yo'llarning ekvivalentligi shartlarni topish MD-758.2022.1.1 raqamli «Tebranish jarayonlari va to'yingan jarayonlarni o'rganish uchun kasr dinamikasining matematik modellarini ishlab chiqish» mavzusidagi xorijiy fundamental loyihasida qo'llanilgan (Vitus Bering nomidagi Kamchatka davlat universitetining 2023-yil 4-apreldagi № 14-12-son ma'lumotnomasi). Natijada ba'zi Evklid bo'lmagan geometriya uchun yo'llarning ekvivalentligi uchun shartlar topish imkonini bergan;

maxsus psevdoortogonal gruppaga ta'siriga nisbatan yo'llar va sirlarning ekvivalentligi natijalari OT-F-4-(37-29) "A-analitik funksiyalarning funksional xossalari va ularning qo'llanilishi. Matritsaviy soxalarda kompleks analizning ba'zi masalalari" tadqiqot doirasida maxsus matritsa funksiyasi kiritilgan va ushbu funksiya yordamida maxsus psevdoortogonal gruppaga ta'siriga nisbatan yo'llar va sirlarning ekvivalentligi uchun zarur va yetarli shartlar topilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 14-apreldagi № 04/11-2129-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalarning qo'llanilishi yo'llar va sirlarning differensial invariantlari bo'yicha ekvivalentligigacha tiklash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan 3 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiya'ning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabietlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 92 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Boshlang‘ich ma’lumotlar**», deb nomlanuvchi bobida dissertatsiya natijalarini taqdim etish uchun zarur bo‘lgan ko‘phadlar halqasi, maydon kengaytmalari, differensial halqalar va maydonlar, differensial maydonlar  $d$ -chiziqli gruppalar ta’sirida invariant bo‘lgan ratsional funksiyalar, klassik gruppalar ta’sirida ko‘phadli invariantlar  $GL(n, K)$  gruppasi, chekli o‘lchamli fazolarga yo‘llar.

$A$  birlik ixtiyoriy kommutativ halqa bo‘lsin. Elementlari cheksiz tartibli ketma-ketliklar bo‘lgan  $a = (a_0, a_1, a_2, \dots)$ ,  $a_i \in A$  yangi  $B$  to‘plamni qaraymiz, barcha  $a_i$  lar nol yoki chekli sonlardan iborat. Ikkita ketma-ketlik ushbu qoidaga ko‘ra qo‘shiladi:

$$a + b = (a_0, a_1, a_2, \dots) + (b_0, b_1, b_2, \dots) = (a_0 + b_0, a_1 + b_1, a_2 + b_2, \dots)$$

ko‘paytirish esa  $a \cdot b = (a_0, a_1, a_2, \dots) \cdot (b_0, b_1, b_2, \dots) = c = (c_0, c_1, c_2, \dots)$  formula bilan beriladi, bu yerda  $c_k = \sum_{i+j=k} a_i b_j$ ,  $k \in \mathbb{Z}_+$ . Ravshanki,  $B$  birlik  $(1, 0, 0, \dots)$  elementli

kommutativ halqa bo‘ladi.

$(a, 0, 0, \dots)$  ko‘rinishidagi ketma-ketliklar  $A$  halqa elementlari kabi qo‘shiladi va ko‘paytiriladi. Bundan kelib chiqadiki bunday ketma-ketliklar  $A$  ning elementlariga mos holda tanlanadi, ya’ni  $a = (a, 0, 0, \dots)$ ,  $a \in A$  uchun olinadi.

Quyida  $x$  orqali  $(0, 1, 0, 0, \dots)$  elemayentni belgilaymiz va  $x$  ni  $A$  ustidagi erkli o‘zgaruvchi deyiladi.  $B$  halqada kiritilgan ko‘paytirish amalidan quyidagilarga ega bo‘lamiz

$$\begin{aligned} x &= (0, 1, 0, 0, \dots) \\ x^2 &= (0, 0, 1, 0, \dots) \\ &\dots\dots\dots \\ x^n &= (0, 0, \dots, 0, 1, 0, \dots) \end{aligned} \tag{1}$$

yuqoridagi (1) tengliklardan va  $A \subset B$  ekanligidan  $(0, 0, \dots, 0, a, 0, \dots) = a x^n = x^n a$  ga ega bo‘lamiz. Bu holda  $a_n - f = (a_0, a_1, \dots, a_n, 0, 0, \dots)$  ketma-ketlikni noldan farqli hadlari bo‘lsin, ya’ni

$$\begin{aligned} f &= (a_0, a_1, \dots, a_{n-1}, 0, 0, \dots) + a_n x^n = (a_0, a_1, \dots, a_{n-2}, 0, 0, \dots) + a_{n-1} x^{n-1} + a_n x^n = \\ &= a_0 + a_1 x + a_2 x^2 + \dots + a_n x^n. \end{aligned} \tag{2}$$

**Ta'rif 1.** Yuqorida kiritilgan  $B$  halqa  $A[x]$  bilan belgilanadi va  $x$  o'zgaruvchili ko'phadlar halqasi deyiladi. Halqaning elementlari  $x$  o'zgaruvchili ko'phadlar deyiladi,  $a_i$  elementlari esa  $f$  ko'phadning koeffitsientlari deb ataladi.

Aytaylik  $F$   $P$  maydonning qism maydoni bo'lsin. Bunday holda,  $P$  maydoni  $F$  qism maydonning kengaytmasi deyiladi. Ma'lumki,  $P$  maydonning nol va biri  $F$  da bo'ladi va  $P$  uchun nol va bir bo'lib xizmat qiladi. Agar  $P$  da  $F$  ni o'z ichiga olgan barcha qism maydonlarning  $F_1$  kesishmasini va  $F$  ga tegishli bo'lmagan ba'zi  $x \in K$  elementini olsak, u holda  $F_1, F$  va  $x$  ni o'z ichiga olgan minimal maydon bo'ladi, xususan  $F_1$   $F$  maydonining kengaytmasi hisoblanadi. Bunda  $F$  maydonining  $F_1$  kengaytmasi  $F$  ga  $x$  elementni qo'shish orqali olinadi va bu  $F_1 = F(x)$  ko'rinishda yoziladi. Xuddi shunday,  $P$  maydonining  $x_1, \dots, x_n$  elementlarini  $F$  ga qo'shish natijasida olingan  $P$  maydonning  $F(x_1, \dots, x_n)$  qism maydoni haqida aytish mumkin.

Aytaylik,  $F$   $P$  maydonning qism maydoni bo'lsin.  $x \in P$  element  $F$  da algebraik deyiladi, agar  $F$  da shunday  $a_0, a_1, \dots, a_n$  elementlar mavjud bo'lib ularning xammasi ham 0 ga teng bo'lmasa va  $a_0 + a_1x + \dots + a_nx^n = 0$  tenglik o'rinli bo'lsa. Agar  $P$  ning har bir elementi  $F$  da algebraik bo'lsa,  $P$  maydon kengaytmasi  $F$  da algebraik deyiladi.

$P$  maydon  $b_1, \dots, b_n$  elementlari  $F$  qism maydonda algebraik bog'liq agar  $f = F[x_1, \dots, x_n]$  nolga teng bo'lmagan ko'phad mavjud bo'lib va  $f(b_1, \dots, b_n) = 0$  bo'lsa, qism maydonga algebraik jihatdan bog'liq deyiladi. Aks holda,  $b_1, \dots, b_n$  elementlar  $F$  ga nisbatan algebraik erkli deyiladi.

$A$  ixtiyoriy kommutativ halqa bo'lsin.  $d$  akslantirish  $A$  halqada differentsiallashtirish deyiladi, agar  $x, y \in A$  elementlar uchun quyidagi  $d(x + y) = d(x) + d(y)$  va  $d(x \cdot y) = d(x) \cdot y + x \cdot d(y)$  tengliklar o'rinli bo'lsa.

Birlik elementli  $A$  kommutativ halqada fiksirlangan differentsiallashtirish berilganda differensial halqa yoki  $d$ -halqa (mos holda differensial maydon yoki  $d$ -maydon) deyiladi.

Aytaylik  $K, R$  haqiqiy sonlar maydoni yoki  $C$  kompleks sonlar maydoni bo'lsin va  $X, K$  maydoni ustidagi  $n$  o'lchamli chiziqli fazo bo'lsin.  $X$  ning elementlarini  $n$  o'lchamli vektor-ustunlar  $x = \{x_i\}_{i=1}^n$  sifatida ifodalanadi, bu yerda  $x_i \in K, i = \overline{1, n}$  va shuning uchun biz  $X$  ni  $K^n$  bilan belgilaymiz.

Barcha  $K\{x_1, \dots, x_n\}$  ko'phadlarning  $K$  maydon ustidagi  $x_1, \dots, x_n$  o'zgaruvchilar  $d$ -halqasini va  $d$  - ratsional funktsiyalarning  $K\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  maydonini ko'rib chiqaylik, bunda differentsiallashtirish qoidasi  $d(x_i) = x_i^{(r)}$  tenglik bilan aniqlanadi, bu yerda  $x_i^{(0)} = x_i, i = \overline{1, n}, r \in Z_+$ .

Budan keyin  $x = \{x_i\}_{i=1}^n \in K^n$  vektor uchun  $x_i^{(r)} = \{x_i^{(r)}\}_{i=1}^n, r \in Z_+$  belgisi qo'llaniladi. Bundan tashqari, belgilangan  $K\{x_1, \dots, x_n\}$  va  $K\langle x_1, \dots, x_n \rangle$  o'rniga biz  $K\{x\}$  va  $K\langle x \rangle$  qisqa yozuvlaridan foydalanamiz.

$GL(n, K)$  bilan  $X$  fazoning barcha teskari chiziqli almashtirishlar gruppasini belgilaymiz va  $GL(n, K)$  gruppaining ixtiyoriy qism gruppasini  $G$  bilan belgilaymiz.  $G$ -gruppaining  $n$  o'lchovli vektorga ta'sirini  $g = (g_{ij})_{i,j=1}^n \in G$  matritsani  $x$  vektoriga chapdan ko'paytirilish sifatida aniqlanadi, ya'ni  $(g, x) \mapsto gx$ .

$d$  - ratsional funksiyalar  $f\langle x \rangle := f\langle x_1, \dots, x_n \rangle \in K\langle x \rangle$  da  $G$ -invariant, agar barcha  $g \in G$  uchun  $f\langle gx \rangle = f\langle x \rangle$  o'rinli bo'lsa.

Barcha  $G$ -invariant  $d$  - ko'phadlar ( $d$ -ratsional funktsiyalar) to'plamini  $K\{x\}^G := K\{x_1, \dots, x_n\}^G$  (mos ravishda,  $K\langle x \rangle^G := K\langle x_1, \dots, x_n \rangle^G$ ) bilan belgilanadi.

**Teorema 1.**  $GL(n, K)$  gruppaining har qanday  $G$  qism gruppasi uchun  $K\{x\}^G$  to'plami (mos ravishda,  $K\langle x \rangle^G$ )  $d$  - halqadagi  $d$  - qism halqadir (mos ravishda,  $d$  - maydondagi  $d$  - qism maydon).

$k$  ta vektordan iborat  $x_j = \{x_{ji}\}_{i=1}^n \in K^n, j = \overline{1, k}$  bo'lgan  $V = \{x_1, \dots, x_k\}$  to'plamni qaraylik.  $k \cdot n$  o'zgaruvchili bo'lgan barcha  $\{x_{ji} : j = \overline{1, k}, i = \overline{1, n}\}$  ko'phadlarning  $K$  maydoni ustidagi halqasini  $K[x_1, \dots, x_k]$  bilan belgilaymiz. Har bir  $g = (g_{j\ell})_{j,\ell=1}^k \in GL(k, K)$  uchun  $K[x_1, \dots, x_k]$  da  $(g \circ f)(x_1, \dots, x_k) = f(gx_1, \dots, gx_k)$  ko'phadga  $g$  ning ta'sirini  $(g \circ f)(x_1, \dots, x_k) = f(gx_1, \dots, gx_k)$  qoidaga asosan aniqlaymiz. Barcha  $f \in K[x_1, \dots, x_k]$  uchun  $(g \circ f) \in K[x_1, \dots, x_k]$ .

Aytaylik  $G, GL(n, K)$  gruppaining ixtiyoriy qism gruppasi bo'lsin.  $f \in K[x_1, \dots, x_k]$  ko'phad  $G$ -invariant deyiladi, agar ixtiyoriy  $g \in G$  uchun  $g \circ f = f$  tenglik o'rinli bo'lsa. Ko'rish mumkinki  $K[x_1, \dots, x_k]^G$  to'plamning barcha  $G$ -invariant ko'phadlari  $K[x_1, \dots, x_k]$  halqada  $K[x_1, \dots, x_k]$  qism halqa tashkil etadi.  $E = \{f_i\}_{i \in I} \subset K[x_1, \dots, x_k]^G$  ko'phadlar sistemasi, bunda  $I$  qandaydir indekslar to'plami bo'lsin,  $K[x_1, \dots, x_k]^G$  butun ratsional bazis deyiladi, agar har qanday element  $f \in K[x_1, \dots, x_k]$  uchun chekli to'plam  $\{f_i\}_{i=1}^m \subset E$  va  $K$  da  $\phi(y_1, \dots, y_m)$  ko'phad mavjud bo'lsa. Bu shuni anglatadiki,  $E$  to'plam  $K[x_1, \dots, x_k]^G$  halqa uchun tashkil etuvchilar sistemasi, yoki  $E$  ni o'z ichiga olgan eng kichik qism halqa  $K[x_1, \dots, x_k]^G$ .  $E$  chekli to'plam bo'lgan holda  $\{f_1, \dots, f_m\}, K[x_1, \dots, x_k]^G$  halqa chekli butun ratsional bazisga ega deyiladi.

$(0, 1)$  intervalni  $X$  fazoga uzluksiz akslantiruvchi va har bir  $x(t) = \{x_i(t)\}_{i=1}^n$  koordinatalari cheksiz marta uzluksiz differensiallanuvchi  $x_i : (0, 1) \rightarrow K$  vektor funksiya yo'l deyiladi,  $i = \overline{1, n}$ .

Yo'ning  $x(t) = \{x_1(t), \dots, x_n(t)\}$   $r$ -tartibli hosilasi  $x^{(r)}(t) = \{x_1^{(r)}(t), \dots, x_n^{(r)}(t)\}$  vektor bo'ladi, bu yerda  $x_i^{(r)}(t)$  –  $r$ -tartibli hosilasi. Ravshanki,  $r = 1, 2, \dots$  lar uchun  $x^{(r)}(t)$  yo'l bo'ladi.

$x(t)$  yo'l regulyar yo'l deyiladi, agar barcha  $t \in (0,1)$  lar uchun  $x^{(1)}(t) := x'(t) \neq 0$  tenglik bajarilsa.

Har bir yo'l  $x(t) = \{x_i(t)\}_{i=1}^n$  uchun biz  $n \times n$  -  $(x(t) \ x^{(1)}(t) \ \dots \ x^{(n-1)}(t))$  matritsa olamiz, bu yerda  $j$  – ustun  $x_i^{(j-1)}(t), i = \overline{1, n}$  koordinatalariga ega,  $M(x)(t)$   $n \times n$  bilan matritsa belgilanadi.  $M'(x)(t)$  bilan  $(x^{(1)}(t) \ x^{(2)}(t) \ \dots \ x^{(n)}(t))$  matritsani belgilaymiz. Agar  $x(t)$  yo'l barcha  $t \in (0,1)$  lar uchun  $\det M(x)(t)$  nolga teng bo'lmasa, u holda yo'l kuchli regulyar yo'l deb ataladi. Agar  $x(t)$  yo'l regulyar yo'l bo'lmasa, unda ba'zi  $t_0 \in (0,1)$  lar uchun  $x^{(1)}(t_0) = 0$  bo'ladi va shuning uchun  $\det M(x)(t_0) = 0$ , ya'ni kuchli regulyar yo'l bo'lmaydi. Shuning uchun har bir kuchli regulyar yo'l regulyar yo'l dir.

Aytaylik  $G, GL(n, K)$  gruppaining ixtiyoriy qism gruppasi bo'lsin. Ikkita yo'l  $x(t)$  va  $y(t)$   $G$ -ekvivalent deyiladi agar hamma  $t \in (0,1)$  uchun shunday  $g \in G$  element mavjud bo'lsa va  $y(t) = g x(t)$  tenglik bajarilsa. Ko'rinib turibdiki,  $y^{(r)}(t) = g x^{(r)}(t), r = 1, 2, \dots$ , holatda  $M(y)(t) = g M(x)(t)$  bo'ladi. Bundan tashqari, ko'rinib turibdiki, oxirgi tenglikdan  $G$ -ekvivalentligidan  $x(t)$  va  $y(t)$  yo'llarning ekvivalentligi kelib chiqadi.

Quyidagi teorema ikkita yo'ning  $GL(n, K)$  gruppaga ta'siriga nisbatan ekvivalentlik shartini beradi.

**Teorema 2.** Ikki  $x(t)$  va  $y(t)$  kuchli regulyar yo'llar  $GL(n, K)$  gruppaga ta'siriga nisbatan ekvivalent deyiladi, faqat va faqat quyidagi tenglik bajarilganda:

$$(M(x)(t))^{-1} M'(x)(t) = (M(y)(t))^{-1} M'(y)(t) \quad (3)$$

barcha  $t \in (0,1)$  lar uchun.

$X$  fazoning barcha affin almashtirishlari  $Aff(X)$  gruppasini ko'rib chiqamiz.  $Aff(X)$  dagi har bir chiziqli hosmas almashtirish  $g \in GL(n, K)$  va siljishga nisbatan superpozitsiyadir,  $u = \{u_i\}_{i=1}^n \in K^n$  element tomonidan hosil qilingan ya'ni, har qanday affin almashtirish  $(u, g) \in Aff(X)$   $X$  da ushbu qoidaga muvofiq harakat qiladi

$$(u, g)(x) = g x + u, \quad (4)$$

bu yerda  $x \in X, u \in K^n, g \in GL(n, K)$ .

$Aff(X)$  gruppada ko'paytirish quyidagi tenglik bilan aniqlanadi  $(u, g)(v, h) = (u + g u, g h)$ , bu yerda  $u, v \in K^n, g, h \in GL(n, K)$ . Bunday holda,  $Aff(X)$  gruppada yarim to'g'ri ko'paytma aniqlangan deyiladi, u quyidagicha yoziladi  $Aff(X) = K^n \triangleleft GL(n, K)$ . Agar  $G \subset GL(n, K)$  gruppaining ixtiyoriy

qism gruppasi bo'lsa, u holda  $K^n \triangleleft G = \{(u, g) \in K^n \triangleleft GL(n, K) : g \in G\}$  to'plam  $K^n \triangleleft GL(n, K)$  ning qism gruppasi bo'lib, u gruppalar va  $G$  ning yarim to'g'ri ko'paytmasi deb ham ataladi.

**Tasdiq 1.**  $X$  da berilgan ikkita  $x(t)$  va  $y(t)$  yo'llar  $K^n \triangleleft G$  - ekvivalent bo'ladi, faqat va faqat  $x'(t)$  va  $y'(t)$  yo'llar  $G$  ekvivalent bo'lsa.

**Xulosa 1.** Ikki  $x(t)$  va  $y(t)$  yo'llar uchun  $\det M'(x)(t) \neq 0$ ,  $\det M'(y)(t) = 0$ ,  $t \in (0, 1)$  tenglik o'rinli bo'lsa  $K^n \triangleleft GL(n, K)$  - ekvivalent deyiladi faqat va faqat quyidagi tenglik bajarilsa:

$$(M'(x)(t))^{-1} M''(x)(t) = (M'(y)(t))^{-1} M''(y)(t) \quad (5)$$

barcha  $t \in (0, 1)$  lar uchun.

Dissertatsiyaning “**Maxsus psevdootogonal gruppaga ta'siriga nisbatan yo'llarning ekvivalentligi**” deb nomlangan ikkinchi bobida ikkita yo'l va chekli yo'llar sistemasining maxsus psevdootogonal ta'siriga nisbatan ekvivalentligi muammosi o'rganiladi. Bu masalani hal qilish uchun,  $G = SO(n, p, K)$  bo'lganda chekli yo'llar sistemalarining differensial  $G$ -invariant ratsional funksiyalarining differensial maydonlari tashkil etuvchilari tasvirlangan. Shuningdek, differensial invariantlar bo'yicha  $G$ -ekvivalentgacha yo'llarni tiklash masalasiga yechim topilgan, bu yerda  $G = SO(n, p, K)$ .

Biz  $p \in \{1, \dots, n-1\}$  natural sonini tuzatamiz va  $K^n$   $n$  o'lchovli fazoda chiziqli simmetrik formani  $[x, y]_p = x_1 y_1 + \dots + x_p y_p - x_{p+1} y_{p+1} - \dots - x_n y_n$  ko'rib chiqamiz, bu yerda  $x = \{x_i\}_{i=1}^n, y = \{y_i\}_{i=1}^n \in K^n$ .  $GL(n, K)$  da  $I$  bilan  $(I_{ij}^{(p)})_{i,j=1}^n$  ko'rinishdagi,  $I_{jj}^{(p)} = 1$  teng  $j = \overline{1, p}$  da,  $I_{jj}^{(p)} = -1$  teng  $j = \overline{p+1, n}$  da,  $I_{ij}^{(p)} = 0$  teng  $i \neq j, i, j = \overline{1, n}$  da bo'lgan matritsani belgilaymiz.

Psevdootogonal gruppaga  $O(n, p, K)$  quyidagi tenglik bilan belgilanadi  $O(n, p, K) = \{g \in GL(n, K) : g^T I g = I\}$ .

Har qanday  $x, y \in K^n$  uchun  $g \in O(n, p, K)$  bo'lsa, u holda  $[g x, g y] = [x, y]$  bo'lishi aniq.

Maxsus psevdootogonal gruppaga  $SO(n, p, K)$ , bu  $g \in O(n, p, K)$  bo'lib va  $\det g = 1$  bo'ladi.

Quyidagi teorema matritsalar yordamida ikkita yo'lning ekvivalentligi uchun zarur va etarli shartlarni beradi.

**Teorema 3.** Ikki  $x(t)$  va  $y(t)$  kuchli regulyar yo'llar  $SO(n, p, K)$  gruppaga amaliga nisbatan ekvivalent bo'ladi, agar quyidagi tengliklar bajarilsa:

$$(M(x)(t))^{-1} M'(x)(t) = (M(y)(t))^{-1} M'(y)(t) \quad (6)$$

$$M^T(x)(t) I M(x)(t) = M^T(y)(t) I M(y)(t) \quad (7)$$

$$\det M(x)(t) = \det M(y)(t) \quad (8)$$

barcha  $t \in (0, 1)$  lar uchun.

Endi, chiziqli formalarning tengligi yordamida  $SO(n, p, K)$  gruppaga amaliga nisbatan ikkita yo‘lning ekvivalentligi shartini keltiramiz.

**Teorema 4.** Ikki  $x(t)$  va  $y(t)$  kuchli regulyar yo‘llar  $SO(n, p, K)$  gruppaga amaliga nisbatan ekvivalent bo‘ladi, agar quyidagi tengliklar bajarilsa:

$$[x^{(m)}(t), x^{(m)}(t)] = [y^{(m)}(t), y^{(m)}(t)]$$

va

$$\det M(x)(t) = \det M(y)(t)$$

barcha  $m = \overline{0, n-2}$ ,  $t \in (0, 1)$ .

$X$  da bitta yo‘l regulyar bo‘lgan,  $\{x^i(t), i = \overline{1, k}\}$  chekli sonli yo‘llar sistemasini ko‘rib chiqaylik. Umumiylikni yo‘qotmasdan, biz har doim  $x^1(t)$  yo‘lning regulyar deb olamiz. Bunday yo‘llar sistemalarini aniqlangan deb ataladi.

Quyidagi teorema matritsalar tilida ma’lum yo‘llar sistemasining ekvivalentligi uchun zarur va etarli shartlarni beradi.

**Teorema 5.** Ikki  $\{x^i(t), i = \overline{1, k}\}$  va  $\{y^i(t), i = \overline{1, k}\}$  yo‘llar sistemasi  $X$  da  $SO(n, p, K)$  gruppaga amaliga nisbatan ekvivalent bo‘ladi, agar quyidagi tengliklar bajarilsa:

$$\left(M(x^1(t))\right)^{-1} M'(x^1(t)) = \left(M(y^1(t))\right)^{-1} M'(y^1(t)); \quad (9)$$

$$M^T(x^1(t)) I M(x^1(t)) = M^T(y^1(t)) I M(y^1(t)); \quad (10)$$

$$\left(M(x^1(t))\right)^{-1} x^i(t) = \left(M(y^1(t))\right)^{-1} y^i(t); \quad (11)$$

$$\det M(x^1(t)) = \det M(y^1(t)) \quad (12)$$

barcha  $t \in (0, 1)$  lar uchun.

Endi, chiziqli formalarning tengligi yordamida  $SO(n, p, K)$  gruppaga amaliga nisbatan ikkita yo‘llar sistemasining ekvivalentligi shartini keltiramiz.

**Teorema 6.** Ikki  $\{x^i(t), i = \overline{1, k}\}$  va  $\{y^i(t), i = \overline{1, k}\}$  yo‘llar sistemasi  $SO(n, p, K)$  gruppaga amaliga nisbatan ekvivalent bo‘ladi, agar quyidagi tengliklar bajarilsa:

$$[x^{(m)}, x^{(m)}](t) = [y^{(m)}, y^{(m)}](t), \quad (13)$$

$$[x^{(\ell)}, x^{(\ell)}](t) = [y^{(\ell)}, y^{(\ell)}](t) \quad (14)$$

$$[x^{(1)}, x^{(n-1)} \dots x^{(1)}](t) = [y^{(1)}, y^{(n-1)} \dots y^{(1)}](t) \quad (15)$$

barcha  $t \in (0, 1)$ ,  $m = \overline{0, (n-1)}$ ,  $\ell = \overline{0, (n-1)}$ ,  $r = \overline{2, k}$ .

Dissertatsiyaning “Maxsus psevdootogonal grupp ta’siriga nisbatan sirtlarning ekvivalentligi” deb nomlangan uchinchi bobida maxsus psevdootogonal grupp ta’siriga sirtlarning ekvivalentligi muammosi o’rganilgan. Bundan tashqari, sirtlarning mavjudligini  $G$  - ekvivalentgacha tiklash zarur va etarli shartlari berilgan.

Har bir koordinatalari cheksiz marta uzluksiz differensiallanuvchi  $x:(0,1) \times (0,1) \rightarrow C^n$  akslantirish elementar sirt deyiladi. Agar  $G \subset GL(n, K)$  gruppining ixtiyoriy qism gruppasi bo’lsa, unda ikkita elementar sirt  $y(s, t)$  va  $x(s, t)$   $G$ -ekvivalent deyiladi, agar ba’zi  $g \in G$  va har qanday  $(s, t) \in (0,1) \times (0,1)$  uchun  $y(s, t) = gx(s, t)$  tenglik bajarilsa.

Har bir  $x(s, t) = (x_j(s, t))_{j=1}^n$  elementar sirtni  $M_s(x)$  orqali  $n \times n$  matritsa  $(m_{ij}(s, t))_{i,j=1}^n$  bilan belgilaymiz, bu yerda  $i$  - chi ustun koordinatalari  $m_{ij}(s, t) = \frac{\partial^{i-1} x_j(s, t)}{\partial s^{i-1}}$ ,  $i, j = 1, \dots, n$  ga ega bo’ladi, bu yerda  $\frac{\partial^0 x_j(s, t)}{\partial s^0} = x_j(s, t)$   $j = 1, \dots, n, s, t \in (0,1)$ .

$M'_{ss}(x)$  bilan  $\left\{ \frac{\partial^i x_j(s, t)}{\partial s^i} \right\}_{i,j=1}^n$  matritsa,  $M'_{st}(x)$  bilan esa matritsa  $\left\{ \frac{\partial^i x_j(s, t)}{\partial s^{i-1} \partial t} \right\}_{i,j=1}^n$  belgilanadi. Biz hamma joyda faqat regulyar sirtlarni qaraymiz, ya’ni hamma  $s, t \in (0,1)$  uchun determinanti  $\det M_s(x(s, t)) \neq 0$  bo’lgan elementar sirtlar.

**Teorema 7.** Ikki  $x(s, t)$  va  $y(s, t)$  regulyar sirtlar  $SO(n, p, C)$  grupp amaliga nisbatan ekvivalent bo’ladi, faqat va faqat agar quyidagi tengliklar bajarilsa:

$$M_s^{-1}(x)(s, t) M'_{ss}(x)(s, t) = M_s^{-1}(y)(s, t) M'_{ss}(y)(s, t); \quad (16)$$

$$M_s^{-1}(x)(s, t) M'_{st}(x)(s, t) = M_s^{-1}(y)(s, t) M'_{st}(y)(s, t); \quad (17)$$

$$M_s^T(x)(s, t) e_p M_s(x)(s, t) = M_s^T(y)(s, t) e_p M_s(y)(s, t); \quad (18)$$

$$\det M_s(x)(s, t) = \det M_s(y)(s, t) \quad (19)$$

barcha  $s, t \in (0,1)$  lar uchun.

Aytaylik  $x(s, t) = \{x_j(s, t)\}_{j=1}^n$   $C^n$  da regulyar sirt bo’lsin va

$$M_s(x) = \left\{ \frac{\partial^{i-1} x_j(s, t)}{\partial s^{i-1}} \right\}_{i,j=1}^n, \quad s, t \in (0,1).$$

$(M_s(x))^{-1}$  teskari matritsani hisoblab,  $(M_s(x))^{-1} M'_s(x) = A(s, t) = (a_{ij}(s, t))_{i,j=1}^n$  dan quyidagi

$$A(s,t) = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & a_{1n}(s,t) \\ 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & a_{2n}(s,t) \\ 0 & 1 & 0 & \dots & 0 & a_{3n}(s,t) \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & a_{nn}(s,t) \end{pmatrix},$$

shaklga ega ekanlibilib olaginiz, bu yerda  $a_{in}(s,t)$  - kompleksqiyimatli cheksiz differensiallanuvchi funksiya  $(s,t) \in (0,1) \times (0,1)$ ,  $i=1,\dots,n$ , va quyidagi formulalar bilan hisoblanadi

$$a_{in} = \frac{\left[ x \dots x_s^{(i-1)} x_s^{-(i+1)} \dots x_s^{(n-1)} \right]}{\det M_s(x)}, \quad i = 2, \dots, n-1;$$

$$a_{1n} = \frac{\left[ x_s^{(n)} x_s^{(1)} \dots x_s^{(n-1)} \right]}{\det M_s(x)};$$

$$a_{nn} = \frac{\left[ x x_s^{(1)} \dots x_s^{(n-2)} x_s^{(n)} \right]}{\det M_s(x)}.$$

Bu tengliklardan kelib chiqadiki,  $\det M_s(x) = \left[ x x^{(1)} \dots x^{(n-1)} \right] = d(s,t)$  sonli funksiya  $a_{nn} d = a_{nn} \left[ x x_s^{(1)} \dots x_s^{(n-1)} \right] = \left[ x x_s^{(1)} \dots x_s^{(n-2)} x_s^{(n)} \right] = d'_s$  tenglikni qanoatlantiradi ya'ni  $d'_s(s,t) = a_{nn}(s,t)d(s,t)$  barcha  $s,t \in (0,1)$  lar uchun o'rinli. Bundan tashqari, hosmas  $C = M_s^T(x) e_p M_s(x)$  matritsa uchun,  $\det C = d^2$ , agar  $(n-p)$  - juft bo'lsa va  $\det C = -d^2$ , agar  $(n-p)$  - toq bo'lsa.

Quyidagi matritsali differensial tenglamalar sistemasini ko'raylik

$$\begin{cases} X'_s(s,t) = X(s,t)A(s,t) \\ X'_t(s,t) = X(s,t)B(s,t) \end{cases} \quad (20)$$

bu yerda  $X(s,t) = (x_{ij}(s,t))_{i,j=1}^n$  noma'lum  $n \times n$ -matritsa,  $A(s,t) = (a_{ij}(s,t))_{i,j=1}^n$ ,  $B(s,t) = (b_{ij}(s,t))_{i,j=1}^n$  fiksirlangan  $n \times n$ -matritsalar, barcha  $s,t \in (0,1)$  lar uchun  $(a_{ij}(s,t))$  va  $(b_{ij}(s,t))$  funksiyalar cheksiz differensiallanuvchi deb faraz qilinadi. (20) sistemaning yechimi  $X(s,t)$  hosmas deyiladi agar hamma  $s,t \in (0,1)$  uchun  $\det X(s,t) \neq 0$  bo'lsa. Ikkita yechim  $X_0(s,t)$  va  $X_1(s,t)$   $SO(n,p,C)$  gruppaga nisbatan ekvivalent deyiladi agar bazi  $g \in SO(n,p,C)$  uchun  $X_1(s,t) = gX_0(s,t)$  tenglik o'rinli bo'lsa.

(20) sistema bilan birgalikda quyidagi tengliklar sistemasini ham ko'rib chiqamiz

$$\begin{cases} X^T(s,t)e_p X(s,t) = C(s,t) \\ \det X(s,t) = d(s,t) \end{cases}$$

bu yerda  $C(s,t) = (c_{ij}(s,t))_{i,j=1}^n = C^T(s,t)$  va  $c_{ij}(s,t), d(s,t)$  cheksiz differensiallanuvchi funksiyalar, barcha  $s, t \in (0,1)$  lar uchun.

**Teorema 8.**  $A(s,t), B(s,t), C(s,t)$  hosmas matritsalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$(i). A(s,t) = \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & a_{1n}(s,t) \\ 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & a_{2n}(s,t) \\ 0 & 1 & 0 & \dots & 0 & a_{3n}(s,t) \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & a_{nn}(s,t) \end{pmatrix};$$

$$(ii). A_t + BA = B_s + AB, \text{ bu yerda } A_t(s,t) = \left( \frac{\partial a_{ij}(s,t)}{\partial t} \right)_{i,j=1}^n, B_s(s,t) = \left( \frac{\partial b_{ij}(s,t)}{\partial s} \right)_{i,j=1}^n;$$

$$(iii). C_s = A^T C + CA, \text{ bu yerda } C_s(s,t) = \left( \frac{\partial c_{ij}(s,t)}{\partial s} \right)_{i,j=1}^n;$$

$$(iv). C_t = B^T C + CB, \text{ bu yerda } C_t(s,t) = \left( \frac{\partial c_{ij}(s,t)}{\partial t} \right)_{i,j=1}^n;$$

va  $d(s,t)$  cheksiz differensiallanuvchi funksiya quyidagi tengliklarni qanoatlantiradi

$$(v). d'_s = a_{nn} d;$$

$$(vi). d'_t = (b_{11} + b_{22} + \dots + b_{nn}) d;$$

$$(vii). d^2(s,t) = \det C(s,t).$$

U holda quyidagi tenglamalar sistemasi

$$\begin{cases} X'_s = XA \\ X'_t = XB \\ X^T e_p X = C \\ \det X = d \end{cases} \quad (21)$$

hosmas yechimaga ega. Bundan tashqari, (21) sistemaning yechimi  $SO(n, p, C)$ -ekvivalentgacha yagonadir.

## XULOSA

Dissertatsiya maxsus psevdoortogonal gruppaga ta'siriga nisbatan yo'llar va sirtlarning ekvivalentligi muammosini hal qilishga bag'ishlangan.

Maxsus psevdoortogonal gruppaga ta'siriga nisbatan ikkita yo'l va chekli yo'llar sistemasining ekvivalentligi haqidagi masalalar yechiladi. Ushbu masalani yechish uchun  $G = SO(n, p, K)$  chekli yo'llar sistemalarining  $G$ -invariant differensial ratsional funksiyalarining differensial maydonning tashkil etuvchi sistemalari bo'lganda tasvirlangan.

Bundan tashqari, o'zgarmas parametrlar yordamida maxsus psevdoortogonal gruppaning ta'siriga nisbatan yo'llar sistemasining ekvivalentligi shartlari o'rnatildi. Uning differensial invariantlariga nisbatan  $G$  - ekvivalentlikgacha bo'lgan yo'llarni tiklash masalasining yechimi ham olinadi, bu yerda  $G = SO(n, p, K)$ .

Maxsus psevdoortogonal gruppaning ta'siriga nisbatan ikkita sirtning ekvivalentligi muammosi hal qilindi. Maxsus psevdoortogonal gruppaga ta'siriga nisbatan ikkita sirtning ekvivalentligi uchun shartlar topiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ГАФФОРОВ РАХМАТЖОН АБДУКАХХОРОВИЧ**

**ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ КРИВЫХ И ПОВЕРХНОСТЕЙ  
ОТНОСИТЕЛЬНО ДВИЖЕНИЙ ПСЕВДОЕВКЛИДОВЫХ  
ПРОСТРАНСТВ**

**01.01.01 – Математический анализ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № В2018.2.PhD/FM207.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.qarshidu.uz](http://www.qarshidu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

Научный руководитель:

Муминов Кобилжон Кодирович  
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Расул Набиевич Ганиходжаев  
доктор физико-математических наук, профессор

Ахрор Юсупович Хамраев  
кандидат физико-математических наук, доцент

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится «06» 07 2023 года в 14<sup>00</sup> на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 при Каршинском государственном университете (Адрес: 180103, г. Карши, ул. Кучабег 17. Тел.: (+998 75) 225-34-13, факс: (+998 75) 221-00-56, e-mail: [qarshidu@umail.uz](mailto:qarshidu@umail.uz)). Каршинский государственный университет, физико-математический факультет, аудитория 102.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № 177). (Адрес: 180103, г. Карши, ул. Кучабег, 17. Тел.: (+998 75) 225-34-13).

Автореферат диссертации разослан «24» 06 2023 года.  
(протокол рассылки № 5 от «24» 06 2023 года).



Б.А.Шоимкулов

Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н., профессор

Ш.Д.Нодиров

Учредитель-секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.ф.-м.н. (PhD)

А.А.Имомов

Председатель Научного семинара при  
Научном совете по присуждению ученых  
степеней, д.ф.-м.н. (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Многие научные исследования с практическими приложениями, проводимые в мире, во многих случаях сводятся к задачам изучения условий эквивалентности кривых и поверхностей. Исследование этих условий составляет содержание теории инвариантов. Теория инвариантов в современной математике играет важную роль. Теория инвариантов занимает центральное место во многих областях математики и физики, таких как проективная геометрия, квантовая механика и многих других. Поэтому нахождение условий эквивалентности кривых и поверхностей играет важную роль в современной математике.

В настоящее время в мире проводятся научные исследования по определению условий эквивалентности кривых и поверхностей, лежащих в конечномерном линейном пространстве, относительно действия некоторой группы. В связи с этим, помимо основной проблемы о необходимых и достаточных условиях эквивалентности кривых и поверхностей относительно действия некоторой группы, в рамках геометрического подхода к ее решению кривым и поверхностям придается кривизна, кручений и другим геометрическим свойствам особое внимание уделяется вопросу восстановления.

В последние годы в нашей республике были предприняты масштабные меры по расширению научного и практического применения фундаментальных исследований и получены значительные результаты. В частности, в последнее время уделено особое внимание изучению необходимых и достаточных условий эквивалентности кривых и поверхностей. Значительные результаты достигнуты в нахождении необходимых и достаточных условий эквивалентности заданных путей и поверхностей в евклидовом пространстве относительно действия некоторой группы. В 2020 - 2024 годах качестве основных задач и направлений деятельности математической науки определено проведение научных исследований на уровне международных стандартов по приоритетным областям функционального анализа, математического анализа, дифференциальных уравнений, математической физики, теории вероятностей и теории динамических систем<sup>1</sup>. Для обеспечения реализации данного постановления важную роль играет разработка методов исследования теории инвариантов.

Исследования данной диссертации в определенной степени служат решению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действия по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», в постановлениях №ПП-4387 от 9 июля 2019 года «О мерах государственной поддержки дальнейшего развития математического образования и науки, а также коренного совершенствования деятельности Института математики имени В.И.Романовского Академии

---

<sup>1</sup> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года № 292 «О мерах по организации деятельности вновь созданных научно-исследовательских учреждений Академии наук Республики Узбекистан».

Наук Республики Узбекистан» и №ПП-4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики», также и в других нормативно-правовых актах, касающихся фундаментальной науки.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан IV. «Математика, механика и информатика».

**Степень изученности проблемы.** Основным инструментом решения задачи об эквивалентности путей и поверхностей является теория инвариантов линейных групп, основы которой были заложены в работах Г.Вейля, Д.Гильберта, Ж.Дьедонне, Дж.Керролла, Д.Мамфорда, Х.Крафта и других. Таким образом, основными задачами теории инвариантов в рамках конечномерных пространствах являются:

- I. Классификация элементов линейного пространства с точностью до эквивалентности относительно действия некоторой линейной группы.
- II. Восстановление конечной порождаемости алгебры инвариантов и определение отношений между ними.

